

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA FAN DOKTORI (DSc) VA
FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY DARAJASINI BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

NABIYEV BEKZOD KAMALIDDINOVICH

**TIJORAT BANKLARI DAROMADIGA TA’SIR QILUVCHI
MOLIYAVIY RISKLARNI BAHOLASHDA RAQAMLI
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023 yil

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on economical
sciences**

Nabiyev Bekzod Kamaliddinovich

Tijorat banklari daromadiga ta'sir etuvchi
moliyaviy risklarni baholashda raqamli texnologiyalardan foydalanishning
samarali usullari.....3

Набиев Бекзод Камалиддинович

Эффективные методы использования цифровых технологий при оценке
финансовых рисков, влияющих на доходы коммерческих
банков.....27

Nabiev Bekzod Kamaliddinovich

Efficient methods for using digital technologies in assessing financial risks,
which influence the income of commercial banks.....52

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published
works.....58

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA FAN DOKTORI (DSc) VA
FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY DARAJASINI BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

NABIYEV BEKZOD KAMALIDDINOVICH

**TIJORAT BANKLARI DAROMADIGA TA’SIR QILUVCHI
MOLIYAVIY RISKLARNI BAHOLASHDA RAQAMLI
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023 yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2021.1.PHD/Iqt.1904 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portaliga (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mirzayev Farhod Isamovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Kuziyeva Nargiza Ramazanovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimov Norboy G'aniyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

AT «Aloqabank»

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «13» 03 soat 16.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-01-49, (99871) 239-43-51. e-mail: tdu@tdu.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy, Tel: (99871) 239-28-72; 239-01-49. faks: (99871)239-43-51, e-mail: tdu@tdu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 23 02 kuni tarqatildi.

(2023-yil «20 02» dagi 26 raqamli reestr bayonnomasi).



M.P. Eshov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo davlatlarining iqtisodiy barqaror taraqqiyotini rivojlantirish, raqobotbardoshligini oshirish, jamiyat farovonligini ta'minlash, banklarning xizmat sifatiga ta'sir qiluvchi risklarni baholashni aynan raqamli texnologiyalar asosida yanada takomillashtirish muhim hisoblanadi. Jahon tajribasiga ko'ra, raqamli iqtisodiyotga sarflanayotgan mablag'lar-yil davomida oshib borayotganini kuzatish mumkin. Jumladan, «Xitoy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari akademiyasi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, Xitoyning raqamli iqtisodiyoti 2021-yilda 5,4 trln. AQSh dollariga teng bo'lib, dunyoda AQShdan (13,6 trln. AQSh dollari) keyin 2-o'rinni egallagan. 3-o'rinni Germaniya (2,54 trln. AQSh dollari), Yaponiya (2,48 trln. AQSh dollari), Buyuk Britaniya (1,79 trln. AQSh dollari), Fransiya (1,19 trln. AQSh dollari), Janubiy Koreya (847,8 mlrd. AQSh dollari), Hindiston (514,9 mlrd. AQSh dollari), Kanada (434,5 mlrd. AQSh dollari) hamda Italiya (377, mlrd. AQSh dollari) egallagan. O'rganilgan 47 mamlakat va mintaqadagi raqamli iqtisodiyot bozorining hajmi 2021-yilda-yiliga 3 foizga o'sib, 32,6 trillion AQSh dollarini tashkil etgan»¹.

Raqamlashtirishdan moliyaviy operatsiyalarda iqtisodiy samaradorlikni oshirish va turli jarayonlarda foydalanish qulayligi, uning raqamli bank bozori hajmi oshishiga turtki bo'lishi kutilmoqda, shu bilan birga bu jarayonning rivojlanishi esa ma'lumotlarning buzilishi bozor hajmi oshishiga tahdid solishiga olib kelishi mumkin. Bank amaliyotida ilg'or zamonaviy texnologiyalarni joriy etish asosida mijozlarga xizmat ko'rsatish imkoniyatini oshirish va ularning sifat darajasini ko'tarish muammolariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada milliy bank tizimi va alohida olingan mintaqada bank tizimini rivojlantirish, bank operatsiyalarini raqamlashtirish, bank mijozlariga qulayliklar yaratish hamda xizmat sifatini oshirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlarni aniqlash, raqamlashtirish orqali bank daromadini oshirishga ta'sir qiluvchi moliyaviy risklarni baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlaridagi ilmiy tadqiqotlarga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

O'zbekistonda raqamlashtirish orqali bank daromadiga ta'sir qiluvchi moliyaviy risklarni baholash va boshqarish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bank operatsiyalarini raqamlashtirish, ularga ta'sir qiluvchi risklarni baholash; bank daromadiga ta'sir qiluvchi moliyaviy risklarni baholashni takomillashtirish; moliyaviy risklarni baholashning turli usullaridan foydalanish; bank daromadiga ta'sir qiluvchi risklarni baholashda iqtisodiy muhitni, giyosiyosiy vaziyatlarni hisobga olish shular jumlasidandir. Respublikamiz tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali ularning daromadini oshirish bo'yicha ilmiy-metodologik asoslar to'liq shakllantirilmagan, natijada ularga ta'sir qiluvchi moliyaviy risklarni baholashning jahon metodologiyasini O'zbekiston uchun maqbul shart-sharoitlarda qo'llash, O'zbekiston tijorat banklari faoliyatida «...operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 2026-yil-yakuniga qadar 70

¹ <https://rankingroyals.com/top-10-countries-in-digital-economy-2021/>

foizga oshirish»² vazifasi belgilangan. Bu vazifalarni bajarishda tijorat banklari faoliyatiga ta'sir qiluvchi risklarning ta'sir darajasini raqamli texnologiyalar asosida oldindan aniqlash texnologiyalarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunday holatlar bank sohasidagi har bir operatsion jarayonga raqamlashtirishni keng qo'llash masalalari ko'p jihatdan ilmiy yondashuvlarni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmonlari, 2017-yil 12-sentyabrdagi PQ-3270-son «Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2018-yil 3-iyuldagi PQ-3832-son «O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida», 2018-yil 21-noyabrdagi PQ-4022 son «Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tijorat banklari daromadiga ta'sir qiluvchi risklarni baholashning metodologik asoslari va amaliyoti hamda banklar faoliyatida raqamli texnologiyalarni qo'llash masalalari bir qator xorijlik iqtisodchi olimlar W.A.Kracaw, T.S.Campbell, A.J.Berry, P.M.Collier, G.T.Burke, Dr.Krishn, A.Goyal, YU.V.Vsyakix, E.P.Arends, E.P.Jarkovskaya, L.V.Plaxova, I.B.Romashova, N.P.Saxirova, V.N.Smagin, V.A.SHapkin, E.V.Svetkova, I.O.Arlyukova, G.V.CHernova, E.O.CHovushyan, M.A.Sidorov, A.S.SHapkin, R.Eddous, R.Stensfeld, X. Van Gryuning, V.A.Zotovning ilmiy tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan³.

² 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг таракқиёт стратегияси. “Адолат” миллий ҳуқуқий маркази. – Т., 2022 й. - 152 б.

³Kracaw. Financial Risk Management: Fixed Income and Foreign Exchange. New York: HarperCollins College Publishers, 1993; Collier, P. M., A. J. Berry, and G. T. Burke. Risk and Management Accounting: Best Practice Guidelines for Enterprise-wide Internal Control Procedures. Oxford/Elsevier: CIMA Publishing, 2007.; Stephen Muthii Wanjohi, Joel Githinji Wanjohi, James Muchiri Ndambiri. The Effect of Financial Risk Management on the Financial Performance of Commercial Banks in Kenya. International Journal of Finance and Banking Research. Vol. 3, No. 5, 2017, pp. 70-81. doi: 10.11648/j.ijfbr.20170305.12.; Dr. Krishn A.Goyal, Risk Management in Indian Banks –Some emerging issues.; Всяких Ю. В. Управление финансовыми рисками в коммерческом банке как основа его финансовой устойчивости / Ю.В. Всяких, А.И. Давыдова. — Текст : непосредственный. // Молодой ученый. — 2015. — № 23 (103). — С. 501-504. — URL: <https://moluch.ru/archive/103/24100/>. Арендс Е.П. Банковское дело / Е.П.Арендс. – М.: Омега-Л, 2011.-285с.; Жарковская Е.П. Банковское дело: учебник/ Е.П. Жарковская-4-е изд, испр. и доп. – М.: Омега-Л, 2009.-452 с.; Жарковская Е.П. Банковское дело: учебное пособие / Е.П.Жарковская. – М.: Омега-Л, 2009.-285 с.; Ковалев В.В. Финансовый менеджмент, теория и практика/ В.В.Ковалев-2-е изд., перераб. и доп. – М.: Проспект, 2008.-1024 с.; Лукасевич, И.Я. Финансовый менеджмент: учебник / И.Я.Лукасевич. – М.: Эксмо, 2008. – 768 с.; Плахова Л.В.Основы менеджмента: учебное пособие/ Л.В.Плахова. – М.: КНОРУС, 2009.- 496 с.; Ромашова, И.Б. Финансовый менеджмент.

Bu borada o'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Sh.Abdullaeva, A.Omonov, F.Mirzayev⁴ tadqiqotlarini asos qilib olish mumkin, lekin hozirgacha ular asosida banklarda ularning daromadiga ta'sir qiluvchi moliyaviy risklarni raqamli texnologiyalar asosida xalqaro amaliyotni qo'llash masalasi va metodologik asoslari alohida mustaqil dissertatsion tadqiqot sifatida amalga oshirilmaganligi va tizimli ravishda banklarning daromadiga ta'sir qiluvchi risklarni chuqurroq o'rganish zarurati dissertatsiya mavzusi sifatida tanlanishiga asos bo'ldi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Bank sohasiga raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali ularning daromadiga ta'sir qiluvchi moliyaviy risklarni baholashga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tijorat banklariga ta'sir qiluvchi moliyaviy risklarni boshqarishning nazariy masalalarini o'rganish;

tijorat banklari daromadiga ta'sir qiluvchi moliyaviy risklarni baholashning jahon tajribasidan amaliyotda foydalanish yo'llarini tadqiq etish;

xorijiy banklar amaliyotida moliyaviy risklarni raqamli texnologiyalar asosida baholash usullarini o'rganish va uni amaliyotda qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

tijorat banklari foizli daromadlariga risklarning ta'sir qilish modellarini tadqiq etish orqali amaliy tavsiyalar berish;

tijorat banklari foizli daromadiga moliyaviy risklarning ta'sir qilish dinamikasi chuqur tahlil qilish asosida ilmiy taklif ishlab chiqish;

tijorat banklarida operatsion risklarning ta'sir darajasini kamaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

moliya bozorida faoliyat yuritayotgan moliyaviy institutlar (tijorat banklari) bilan bog'liq muammolarni hal etish bo'yicha tavsiyalar berish;

Основные темы. Деловые игры: учебное пособие для вузов/ И.Б. Ромашова. – М.: КНОРУС, 2009. -336 с.; Сахирова, Н.П.Страхование / Н.П.Сахирова. – М.: Проспект, 2010. -744 с.; Смагин В.Н. Финансовый менеджмент / В.Н. Смагин. – М.: КНОРУС, 2009. -38 с.; Шапкин В.А. Управление портфелем инвестиций ценных бумаг / А.С.Шапкин. – М.: Дашков и К, 2010. -512с.; Цветкова Е.В., Арлюкова И.О. Риски в экономической деятельности: Учебное пособие. – СПб.: Питер, 2011. – 630 с.; Чернова Г.В. Практика управления рисками на уровне предприятия. – СПб.: Питер, 2010. – 340 с.; Човушян Э.О., Сидоров М.А. Управление риском и устойчивое развитие. – М.: Изд-во РЭА им. Г.В.Плеханова, 2009. – 280 с.; Шапкин А.С. Экономические и финансовые риски. Оценка, управление, портфель инвестиций: Монография. – М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К», 2013. – 544 с.; Эддоус Р., Стэнсфилд Р. Методы принятия решений в области управления финансовыми рисками. – М.: Аудит, ЮНИТИ, 2010 – 640 с.; Грюнинг Х. Ван. Анализ банковских рисков. Система оценки корпоративного управления и управления финансовым риском / Х. Ван Грюнинг, С. Брайонович-Братанович. – М.: Весь Мир, 2004. – 150 с.; Зотов В. А. Банковские риски на практике / В. А. Зотов. – Бишкек, 2000. – 128 с.

⁴ Абдуллаева Ш.З.Банк рисклари ва кредитлаш. – Т.: Молия, 2002 й. –304 б.; Абдуллаева Ш.З., Омонов А.А. Тижорат банклари капитали ва уни бошқариш. – Т.: Iqtisod-moliya, 2006. 120 б.; Мирзаев Ф.И. Молиявий рискларнинг турлари, таснифи, бошқариш ва баҳолаш усуллари. – Тошкент: Молия, 2006. – 210 б.

tijorat banklari daromadiga davlat tashqi qarzining ta'siri va uni minimallashtirish masalalarini yoritib berish;

tijorat banklarida moliyaviy risklarni baholash bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti tijorat banklari daromadiga ta'sir ko'rsatuvchi risklarni baholashda raqamli texnologiyalarni qo'llash jarayonida yuzaga keluvchi moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda statistik tahlil, empirik baholash, iqtisodiy-matematik, omilli tahlil, ekspert baholash, tizimli tenglamalar modeli, korrelyatsion-regression tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tijorat banklarida yuzaga keluvchi operatsion risklarni standartlashtirilgan o'lchash yondashuvi (SMA) orqali baholashda riskni qoplash uchun zarur bo'ladigan kapital miqdori «sof foyda hisobiga qoplash samarali ($0 < I_1 < 1$)», «sof foyda hisobiga qoplash samarasiz ($I_1 > 1$)» chegara indeksleri ishlab chiqilgan;

raqamli statistik usullar asosida bank mijozlarining kredit qobiliyatini baholashda qarz oluvchi ma'lumotlarini avtomatik tahlil qilish asosida mijoz uchun maqbul kredit limitini o'rnatish taklifi asoslangan;

bankning mijozlariga shaxsiy tajribalarni taqdim etish va xizmatlari sifatini oshirish uchun masofadan biometrik identifikatsiyalashning «bank stacks» platformasiga «uchinchi tomon xizmat ko'rsatuvchi foydalanuvchilari» bazasini kiritish taklifi ishlab chiqilgan;

tijorat banklari kredit portfelini risk darajasini minimallashtirishda tarmoqlarni «klaster»larga ajratish va diversifikatsiya darajalarini «diversifikatsiya darajasi past ($n \leq 3$)», «diversifikatsiya darajasi o'rtacha ($4 \leq n \leq 7$)», «diversifikatsiya darajasi etarlicha ($8 \leq n \leq 10$)», «diversifikatsiya darajasi yuqori ($11 \leq n \leq 13$)», «diversifikatsiya darajasi juda yuqori ($n \geq 14$)» toifalar bo'yicha baholash taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

tijorat banklarida operatsion risklarni baholashda tijorat banklari daromadiga ta'sir qiluvchi «Ichki zarar» moliyaviy risklari klassifikatsiyasi ishlab chiqilgan;

xalqaro amaliyotga tijorat banklariga ta'sir qiluvchi moliyaviy risklarni baholash usullari o'rganilgan va ularni baholashda foydalaniluvchi yangi raqamli texnologiyalardan respublikamiz bank amaliyotiga foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

taraqqiy etgan mamlakatlar bank amaliyotida moliyaviy risklar, jumladan, Xalqaro Bazel qo'mitasining risklarni boshqarish standartlariga asoslangani holda, aynan bank daromadiga ta'sir qiluvchi risklarni boshqarish konsepsiyasini respublikamiz bank tizimida qo'llash uning hayotiy faoliyatida davomiylik darajasini oshirishga xizmat qilishi asoslangan;

bank tizimini xalqaro andozalarga mos ravishda innovatsion rivojlantirish asosida barqarorligi va jahon bank xizmatlari bozorida daromadini oshirishda ta'sir

qiluvchi moliyaviy risklarni baholash konsepsiyasi asosida amalga oshirish mexanizmi taklif etilgan;

bank kredit portfelidagi tarmoqlarni klasterlarga ajratish asosida risk darajasini baholash modeli taklif etilgan;

bank faoliyatiga ta'sir qiluvchi moliyaviy risklarning oldini olishda banklar bugungi kunda mijozlar va uchinchi tomon xizmat foydalanuvchilarga moslashuvchan va shaxsiy tajribani taqdim etish uchun ulanadigan platforma «bank stacks» ni yaratish tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ularni taniqli iqtisodchi olimlarning tijorat banklari tamoyillari borasidagi ilmiy-nazariy yondashuvlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va umumlashtirish, tijorat banklarining makroiqtisodiy statistik ko'rsatkichlari, muallifning tadqiqoti natijalari, rasmiy statistik ma'lumotlar hamda boshqa rasman e'lon qilingan amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, raqamli texnologiyalarning samarali usullaridan foydalanish orqali tijorat banklarida moliyaviy risklarni to'laqonli baholash imkoniyatini beruvchi metodologik yondashuvlarni ishlab chiqishda foydalaniladi. Ilmiy tadqiqot tahlillari asosida olingan ilmiy xulosalar tijorat banklariga ta'sir qiluvchi moliyaviy risklarni baholash, ularning kelajakdagi strategiyalarini ishlab chiqish hamda dasturlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalar asosida tijorat banklari daromadiga ta'sir qiluvchi moliyaviy risklar darajasini pasaytirishning konseptual asoslarini takomillashtirishda qo'llaniladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tijorat banklari daromadiga ta'sir qiluvchi moliyaviy risklarning oldini olishda raqamli texnologiyalarni qo'llash, jalb etish dasturlarini shakllantirish va prognozlashda foydalaniladi. Tijorat banklari faoliyatiga yangi xizmatlarni jalb etishda yangi texnologiyalardan foydalanish orqali ularning jahon bozoriga kirib borish imkoniyatlarini oshirishda maqsadli dasturlarni qabul qilishga foydalaniladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tijorat banklari daromadiga ta'sir qiluvchi moliyaviy risklarni baholashda raqamli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha samarali usullardan foydalanishning ilmiy natijalari asosida quyidagilar amaliyotga joriy etilgan:

tijorat banklarida yuzaga keluvchi operatsion risklarni SMA baholash orqali baholashda riskni qoplash uchun zarur bo'ladigan kapital miqdori bo'yicha taklif («Turonbank» AT boshqaruv raisining 2020-yil 28-avgustdagi 89/4-son qarori, «Trastbank» XAB boshqaruvining 2020-yil 28-avgustdagi 89/4-son qarori bilan banklar amaliyotiga kiritilgan). Mazkur taklifni joriy etish asosida tijorat banking 2020-yilda o'rtacha yalpi daromadi o'tgan-yilga nisbatan 21,2 % oshib, (uch-yillik o'rtachasi) 202,1 mlrd. so'mni, operatsion risk summasi 233,2 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan-yilga nisbatan 3,5 % pasayishga erishilgan;

bankning mijozlariga shaxsiy tajribalarni taqdim etish va xizmatlari sifatini oshirish uchun masofadan biometrik identifikatsiyalashning «bank stacks»

platformasiga «uchinchi tomon xizmat ko'rsatuvchi foydalanuvchilari» bazasini kiritish bo'yicha taklif («Trastbank» XAB boshqaruvining 2020-yil 28-avgustdagi 89/4-son qarori bilan banklar amaliyotiga kiritilgan). Mazkur taklifni bank amaliyotiga joriy etish natijasida bankning 2020-yilda foizli daromadi 437,5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan-yilga nisbatan 219,1 mlrd. so'mga oshirishga erishilgan;

bankning mijozlariga shaxsiy tajribani taqdim etish va xizmatlari sifatini oshirish uchun masofadan biometrik identifikatsiyalashning «bank stacks» platformasiga «uchinchi tomon xizmat ko'rsatuvchi foydalanuvchilari» bazasini kiritish bo'yicha taklif («Turonbank» AT boshqaruv raisining 2020-yil 30-martdagi 35/5-son qarori bilan bank amaliyotiga kiritilgan). Olingan taklifni bank amaliyotiga joriy etish orqali bankning 2020-yil boshida xalqaro pul o'tkazmalari bo'yicha pul aylanmalari 236,4 mln. AQSh dollarini tashkil etdi va bu aylanmalardan olingan daromad 809,3 ming AQSh dollarini tashkil etgan;

tijorat banklari kredit portfelining risk darajasini minimallashtirishda tarmoqlarni «klaster»larga ajratish va diversifikatsiya darajalari bo'yicha taklif («Turonbank» AT boshqaruv raisining 2020-yil 30-martdagi 35/5-son qarori, «Trastbank» XAB boshqaruvining 2020-yil 28 avgustdagi 89/4-son qarori bilan banklar amaliyotiga kiritilgan). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida bankning xalqaro moliya muasasalari bilan to'g'ridan-to'g'ri va ishonchli aloqa bog'lash imkoniyatini oshirish natijasida 2020-yil boshida eksport shartnomalari bo'yicha jami tushum 126,7 mln. AQSh dollarini tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, 3 ta xalqaro va 11 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish nashr etilgan. Ularning 8 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, jumladan, 3 tasi xorijda, 5 tasi mahalliy jurnallarda e'lon qilingan, xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlari to'plamida 3 ta ma'ruza tezisi chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, 9 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, uning hajmi 141 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Moliyaviy risklarning iqtisodiy mazmuni, nazariy asoslari va ularning turlari**» deb nomlanib, bunda tijorat banklariga ta'sir etuvchi moliyaviy risklarni boshqarishning nazariy masalalari, tijorat banklari

daromadiga ta'sir etuvchi moliyaviy risklarni baholashning jahon tajribasidan amaliyotda foydalanish yo'llari hamda xorijiy banklar amaliyotida moliyaviy risklarni raqamli texnologiyalar asosida baholash usullari tahlil qilingan. Moliyaviy risklar to'g'risidagi turlicha nazariy yondashuvlarga asoslangan bo'lib, ularning umumiy birlashmasi oladigan daromadiga ta'sir ko'rsatishi hisoblanadi. Ammo ularning yuzaga kelish omillari turlicha bo'lganligi uchun turlicha nazariy yondashuvlarga asoslanadi.

Ayrim olimlar moliyaviy risklarning yuzaga kelish ehtimolligini kishilarning psixologik yondashuvlar asosida baholashni taklif etadilar. Ularning fikricha, «moliyaviy risk ma'lum muqobillarni tanlash bilan bog'liq bo'lib, ularning natijasi ehtimolini hisoblash uning subyektiv jihatiidir. Bundan tashqari, subyektiv jihat (tavakkalchilik tabiati) kishilarning psixologik, axloqiy, g'oyaviy yo'nalish va munosabatlardagi farqlar tufayli bir xil miqdordagi iqtisodiy xavfni turlicha qabul qilmasligida namoyon bo'ladi».

Bundan tashqari, «risk uning mavjudligidan xabardor bo'lish yoki bo'lmasligidan qat'iy nazar, uni hisobga olish yoki e'tiborsiz qoldirish holatlari kuzatilmoqda». Olingan tahlillarga tayanib, moliyaviy risklarning asosiy belgilariga e'tibor qaratish mumkin. Ehtimollikka asoslangan miqdoriy ko'rsatkichli risklar; kutib turilgan daromaddan ajralish yoki mol-mulkni yo'qotish riski.




1-rasm. Moliyaviy risklar yuzaga kelishining asosiy belgilari⁵

Yuqorida keltirilgan belgilarga asoslanib, qayd etish lozimki, moliya institutlari risklari ehtimollikka ko'ra, asosiy faoliyatidan kutilgan darajadagi foydaga erisha olmaslik yoxud uni yo'qotish hisoblanadi. Bu o'rinda ta'kidlash lozimki, moliyaviy risklarni tasniflashga xilma-xil yondashuvlar mavjud. Ko'pgina iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy risklarning quyidagi shaklda namoyon bo'lishi ilgari suriladi:

Moliyaviy risklar moliyaviy maqsadga erisha olmaslik natijasida yo'qotishlar imkoniyatini yaratadi. Risk valyuta kurslari, foiz stavkalari, tovar narxi, aksiyalar narxi, kredit sifati, likvidligi va tashkilotning moliyaviy siyosatini to'g'ri tashkil etishga nisbatan noaniqlikni aks ettiradi. Bu moliyaviy risklar o'zaro mutlaqo mustaqil emas. Masalan, valyuta kurslari va foiz stavkalari ko'pincha o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, menejerlar risklarni boshqarish tizimlarini ishlab chiqishda bu o'zaro bog'liqlikni hisobga olishlari kerak. Moliyaviy risklarni alohida toifalarga bo'lish mumkin, uning qulay tasnifi quyidagi rasmda ko'rsatilgan:

⁵ file:///E:/Ma'lumotlar%202020//Moliyaviy_resurslarni.pdf



2-rasm. Moliyaviy risklarning turlari⁶

Moliyaviy risklarning daromadga taʼsir koʻrsatish imkoniyatidan kelib chiqib, ularni boshqarish quyidagilardan iborat: yuzaga kelishi mumkin boʻlgan risklarning aniq tabiatini koʻrib chiqish va baholash usullarini oʻrganish; yuzaga keluvchi risklar darajasiga taʼsir boʻyicha chora-tadbirlar ishlab chiqish; yuzaga keluvchi risklarning umumiy nazorat funksiyalarini aniqlash va ularni kompleks tahlil qilish.


Oʻtkazilgan tadqiqotlarda risklarning umumiy xarakterini ifodalashda quyidagilarga eʼtibor qaratish zarurligi belgilab beriladi. Birinchi bosqich – amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan operatsiyalarda yuzaga keluvchi risklarni aniqlash. Risklarni aniqlashda umumiy uslubda foydalanilayotgan metodik boʻlimlar hamda tashkilotning bilan bogʻliq risklarni hisobga olish zarur. Riskni aniqlash anketalar orqali amalga oshirilishi mumkin. Har bir aniqlangan risk miqyosi keyinchalik sifat va miqdoriy usullar kombinatsiyasi yordamida baholanadi. Shundan soʻng xavf-xatarlar muhim ahamiyat kasb etadi. Yakuniy risk reytingi umumiy korporativ maqsadlar ustma-ust aniq yoʻnalishda boʻlishi kerak.

Tez-tez qoʻllaniluvchi yondashuv ehtimollik/taʼsir matritsasi bilan risklarni qiyoslash uchun emas, koʻpincha, ehtimollik va taʼsir ham yuqori, oʻrta yoki past deb tasniflanishi mumkin. Natija qanchalik koʻp boʻlsa va taʼsir shunchalik katta boʻlsa, xavf shunchalik yuqori boʻladi.

Tashkilot maqsadlariga erishish yoki hatto uning yashovchanligini xavf ostiga qoʻyadigan risklarni aniqlash va baholash juda muhimdir. 3-rasmda koʻrsatilganidek, taxmin qilinayotgan risklar keyinchalik ehtimollik / taʼsir matritsasi yordamida ustuvorlik qilishi mumkin.

Raqamlar alohida aniqlangan risklar bilan bogʻliq boʻlib, riskning taʼsirini moliyaviy (miqdoriy) yoki moliyaviy xususiyatga ega boʻlmagan (sifatli) imkoniyatlar bilan ifodalash zarur. Tashqi moliyaviy faoliyat yuritayotgan moliyaviy institutlarga risklar daromad, ularning operatsiyalari yoki pul oqimiga taʼsir koʻrsatishi mumkin. Boshqa tomondan, davlat tomonidan belgilangan xizmatlarni belgilashda ularning darajasiga eʼtibor qaratish muhim hisoblanadi.

⁶ By Margaret Woods and Kevin Dowd. Financial Risk Management for Management Accountants. Copyright © 2008 by The Society of Management Accountants of Canada (CMA Canada), the American Institute of Certified Public Accountants, Inc. (AICPA) and The Chartered Institute of Management Accountants (CIMA). All Rights Reserved. 2008. p.29.



3-rasm. Risklarni aniqlashning ehtimollik/ta'sir matritsasi⁷

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Tijorat banklari daromadini shakllantiruvchi iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili**» deb nomlanib, unda tijorat banklari foizli daromadlariga risklarning ta'sir etish modeli, bank foizli daromadiga moliyaviy risklarning ta'sir etish dinamikasi, tijorat banklarida operatsion risklarni kamaytirish yo'llari hamda tijorat banklari kredit portfelini diversifikatsiyalash orqali risklar darajasiga ta'sirini aniqlash modeli tahlil qilingan.

Bank daromadining bu manbai kreditlash jarayonining qay darajada sifatli olib borilishiga bog'liq. Aynan shuning uchun ham banklarda kredit munosabatlari yuzaga kelgan taqdirda tahlillarga asoslanib, oqilona boshqaruv qarorini qabul qilish bank faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Chunki kredit amaliyotidan olingan daromadlar tijorat banklari jami daromadi tarkibida foizli daromad sifatida salmoqli hissa qo'shuvchi xizmat turi bo'lish bilan birga, bank daromadligiga salbiy ta'sir etish doirasi yuqori bo'lgan amaliyot ham hisoblanadi.

Mamlakatimiz tijorat banklarining xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishida kreditlarning o'rni va uning samaradorligi masalalarini o'rganish hamda kredit mablag'lari samaradorligini ta'minlashga oid dastlabki xulosalarni chiqarishdan oldin, muallif tomonidan tijorat banklarida foizli daromadlarga ta'sir etuvchi risklarning salbiy oqibatlarini hamda ularning ta'sir darajasini baholovchi modellar tijorat bank tashkilotlari misollarida ko'rib chiqilgan.

Umuman, bank daromadiga ta'sir etuvchi hamma omillar banklarga ta'sir etuvchi risklar bilan bog'liq. SHuning uchun banklarning foizli daromadiga ta'sir

⁷ By Margaret Woods and Kevin Dowd. Financial Risk Management for Management Accountants. Copyright © 2008 by The Society of Management Accountants of Canada (CMA Canada), the American Institute of Certified Public Accountants, Inc. (AICPA) and The Chartered Institute of Management Accountants (CIMA). All Rights Reserved. 2008. p.29.

etuvchi moliyaviy risklarning yuzaga kelish prognozini oldindan aniqlash, bankning keyingi-yil uchun strategiyasini to'g'ri tanlash imkonini beradi.

Tijorat banklari faoliyatiga ta'sir etuvchi risklarni baholashda dinamik qatorlar hamda Kramer matritsasidan foydalangan holda tahlil qilish mumkin.

1-jadval

Asaka bank ko'rsatkichlari dinamikasi⁸

Ko'rsatkichlar	2015-y.	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Foizli daromad (mln.so'm) (X)	250,5	352,2	418,8	469,6	652,1	1210,4	1925,2
Foizli xarajat (mln.so'm) (Y)	132,1	145,5	185,4	235,8	375,8	725,5	1181,5
Kredit qo'yilmalari	3592,6	5109,7	6466,6	17776,3	26073,4	25605,9	33026,8
Bank marjasi (mln.so'm) ($R = X - Y$)	118,4	206,7	233,4	233,8	276,3	484,9	743,7
$(R_i - R)^2$	44004,1	14755,3	8981,6	8906,0	2690,6	24563,8	172664,0
Moliyaviy risk darajasi (p) Kredit qo'yilmalari /foizli daromad, %da	7	6,9	6,5	2,6	2,5	4,7	5,8

$$\bar{R} = \frac{1}{n} \sum_i R_i = \frac{118,4 + 206,7 + 233,4 + 233,8 + 276,3 + 484,9 + 743,7}{7} = 328,2$$

Bu erda: $\bar{R} - R_i$ ko'rsatkichlarning kuzatish davridagi o'rtacha qiymati;

$$\begin{aligned} \sigma^2 &= \sum_i (R_i - \bar{R})^2 \times p_i \\ &= 44004,1 \times 7 + 14755,3 \times 6,9 + 8981,6 \times 6,5 + 8906,0 \times 2,6 + 2690,6 \times 2,5 \\ &\quad + 24563,8 \times 4,7 + 172664,0 \times 5,8 = 1615004, \end{aligned}$$

bu erda: σ^2 – dispersiya (risk); σ – o'rtacha kvadratik chetlanish; $p_i - i$ kuzatish paytidagi moliyaviy risk darajasi.

$$\sigma = \sqrt{\sum_i (R_i - \bar{R})^2 \times p_i} = \sqrt{1615004} = 1270,8$$

$$CV = \frac{\sigma}{\bar{R}} = \frac{1270,8}{328,2} = 3,87 \text{ CV – variatsiya koeffitsiyenti.}$$


Dastlab, bank faoliyatining umumiy kredit qo'yilmalari summasi va foizli daromadi aks etgan n=7-yillik statistik ko'rsatkichlar olindi, dispersiyasi katta bo'lgan qator uchun (2-jadval) zarar ko'rish koeffitsiyentining vaqtga korrelyatsiyasi ko'rib chiqildi.

⁸ Asaka bank ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Bank faoliyatining umumiy kredit qo'yilmasi va foizli daromad statistik ko'rsatkichlari asosida aniqlangan moliyaviy risk darajasini vaqtga korrelyatsiyasi dinamikasi (Asaka bank misolida)⁹

Yil	Kredit qo'yilmasi, mln. so'm	Foizli daromad, mln. so'm	Moliyaviy risk darajasi, y
2015	3592,6	250,5	7
2016	5109,7	352,2	6,9
2017	6466,6	418,8	6,5
2018	17776,3	469,6	2,6
2019	26073,4	652,1	2,5
2020	25605,9	1210,4	4,7
2021	33026,8	1925,2	5,8

Bu korrelyatsiya koeffitsiyenti ko'rsatkichlari keltirilgan-yillarda 2,5 - 7 oralig'ida bo'lganligi aniqlandi. Moliyaviy risk (y_i) va vaqt (i) qiymatlarining geometrik o'rni aniqlandi va ular orasidagi korrelyatsion bog'liqlik chiziqsizligi, ya'ni polinomga yaqinligi kuzatildi.



4-rasm. Bank faoliyatida moliyaviy risk va vaqt qiymatlarining geometrik o'rni¹⁰

Bu bog'liqlikning regressiya tenglamasi $y_i^* = a_0 + a_1x_i + a_2x_i^2$ (1) ko'rinishda bo'lishi faraz qilindi va yuqoridagi belgilashlardan foydalanib, quyidagi tenglama ko'rinishi yozib olindi: $y_i^* = a_0 + a_1 \cdot i + a_2 \cdot i^2$. (2)

Tenglamadagi noma'lum koeffitsiyentlarni: a_0 , a_1 , a_2 aniqlash uchun eng kichik kvadratlar usulidan foydalanish orqali quyidagi tenglamalar tizimi hosil qilindi:

$$\begin{cases} a_2 \sum_{i=1}^9 i^4 + a_1 \sum_{i=1}^9 i^3 + a_0 \sum_{i=1}^9 i^2 = \sum_{i=1}^9 y \cdot i^2, \\ a_2 \sum_{i=1}^9 i^3 + a_1 \sum_{i=1}^9 i^2 + a_0 \sum_{i=1}^9 i = \sum_{i=1}^9 y \cdot i, \\ a_2 \sum_{i=1}^9 i^2 + a_1 \sum_{i=1}^9 i + a_0 n = \sum_{i=1}^9 y \end{cases} \quad (3)$$

⁹<https://mf.uz> – O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi ma'lumotlari asosida dissertant tomonidan ishlab chiqildi.

¹⁰ Muallif tomonidan tuzilgan.

Bu tizimda zarar ko‘rish koeffitsiyentiga mos ravishda qatnashayotgan ko‘rsatkichlarning qiymatlari hisoblab chiqildi (3-jadval).

3-jadval

Bank faoliyatida moliyaviy riskka mos ravishda qatnashayotgan ko‘rsatkichlarning qiymatlari¹¹

Yil	i	Moliyaviy risk y	Ko‘rsatkichlar				
			$i \cdot y_i$	i^2	i^3	i^4	$i^2 \cdot y$
2015	1	7	7	1	1	1	49
2016	2	6,9	13,8	4	8	16	95,22
2017	3	6,5	19,5	9	27	81	126,75
2018	4	2,6	10,4	16	64	256	27,04
2019	5	2,5	12,5	25	125	625	31,25
2020	6	4,7	28,2	36	216	1296	132,54
2021	7	5,8	40,6	49	343	2401	235,48
Σ	28	36	132	140	784	4676	697,28

4-jadvaldan foydalangan holda (1) sistema quyidagicha yozib olindi:

$$\begin{cases} 4676a_2 + 784a_1 + 140a_0 = 697,28 \\ 7846a_2 + 140a_1 + 28a_0 = 132 \\ 1406a_2 + 28a_1 + 7a_0 = 36 \end{cases}$$

Bu tenglamaning echimini topishda Kramer qoidasidan foydalanildi:

$$\Delta = \begin{vmatrix} 467 & 784 & 140 \\ 784 & 140 & 28 \\ 140 & 28 & 7 \end{vmatrix} = 14016940, \quad \Delta_{a_2} = \begin{vmatrix} 697,28 & 784 & 140 \\ 132 & 140 & 28 \\ 36 & 28 & 7 \end{vmatrix} = 3967730$$

$$\Delta_{a_1} = \begin{vmatrix} 467 & 697,28 & 140 \\ 784 & 132 & 28 \\ 140 & 36 & 7 \end{vmatrix} = 14000814, \quad \Delta_{a_0} = \begin{vmatrix} 467 & 784 & 697,28 \\ 784 & 140 & 132 \\ 140 & 28 & 36 \end{vmatrix} = 69669027$$

Bundan, quyidagi natija hisoblab chiqildi:

$$a_2 = \frac{\Delta_{a_2}}{\Delta} = \frac{3967730}{14016940} = 0,283067, \quad a_1 = \frac{\Delta_{a_1}}{\Delta} = \frac{14000814}{14016940} = 0,99885,$$

$$a_0 = \frac{\Delta_{a_0}}{\Delta} = \frac{69669027}{14016940} = 4,970345$$

Demak, regressiya tenglamasi $y = 0,283067x^2 + 0,99885x + 4,970345$ ko‘rinishda bo‘ladi. Bu tenglama asosida moliyaviy risk koeffitsiyentining-yillar bo‘yicha taxminiy prognozini qilish mumkin. Masalan, 2022-yil uchun bu koeffitsiyent $y = 0,283067 + 0,99885 + 4,970345 = 6,25$, ya’ni nisbiy xatolik $\delta = 38\%$ darajasida bo‘lishi prognoz qilindi. Olingan tahlillarga asosan Asaka bankning kredit qo‘yilmalarida moliyaviy risk koeffitsiyenti orqali foizli daromadning ta’sir doirasini o‘rganish asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Asaka bankning kredit qo‘yilmalari oshib borishi foizli daromad ko‘rsatkichiga to‘g‘ri bog‘lanishga, ularga ta’sir qiluvchi moliyaviy risklarga teskari bog‘lanishga ega bo‘ladi.

¹¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

2. Bank faoliyatiga ta'sir qiluvchi moliyaviy risklarning vaqtga korrelyatsiyasi to'g'ri bog'lanishga ega bo'lib, vaqtning o'zgarishi moliyaviy risklarning banklar daromad manbaiga ta'sir darajasi ortib borishiga olib keladi.

3. Tijorat banklarining daromadi yuqori bo'lgan operatsiyalariga ta'sir qiluvchi risklarning doimiy ravishda tashqi omillar ta'sirida o'zgarishi ularning strategik tizimi o'zgarishiga olib keladi. Bu esa, bankning foizli xarajatlari oshishiga mutanosib ravishda foizli daromad kamayishiga olib keladi.

4. Bankning kredit qo'yilmalarida foizli daromad ulushi ortib borishi moliyaviy risklar limitini aniqlash imkoniyatini oshiradi. Natijada bankning ichki siyosatini o'zgartirish orqali riskning oldini olish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

Tijorat banklari faoliyatiga ta'sir etuvchi muhim risklardan yana biri operatsion risk hisoblanadi. Operatsion risklarni baholash, boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilish tizimida ko'plab amaliy va uslubiy muammolar mavjud. Xususan, Bazil qo'mitasi va Respublika Markaziy banki standartlarida operatsion risklarni baholash yondashuvlarida ularning bank faoliyatiga qat'iy ta'siri to'g'risida fikr bildirilmagan. Shuning uchun, muallifning fikricha, ulardan biri operatsion riskni baholashda mavjud usul va yondashuvlarning asosiy kamchiliklari kredit tashkilotlarining moliyaviy natijalari bo'yicha operatsion riskning salbiy ta'sirini baholash uchun yagona uslubiy asos etishmasligi hisoblanadi.

Xususan, operatsion riskni baholash nisbati sohasidagi uslubiy asos va indeks tahlili etarli emas. Har bir bank, odatda, bufer bilan qoplanishning asosiy va ikkilamchi riskni o'z zimmasiga olishi kerakligini hisobga olinsa, kredit tashkilotlarida operatsion riskni qoplash uchun ma'lum zaxiralarni shakllantirish va yaratish zarur. Shunday qilib, operatsion risk o'lchovi (K1) ko'rsatkichini hisoblash mumkin bo'lgan formula quyidagicha hisoblab topiladi:

$$K1 = \text{ORS} / \text{KTSF} \times 100 \% (4)$$

Bu yerda: KTSF – tijorat banklarning sof foydasi; ORS – tijorat bankining operatsion risk so'mmasi.

Yuqorida keltirigan ko'rsatkichni hisoblashda turlicha yondashuvlarga asoslaniladi. Muallifning fikricha, taklif etayotgan model orqali banklar operatsion riskni hisoblash metodikasini o'zgartirish zarur. Operatsion risklarni hisobot davri va bazis davrini bog'lagan holda baholash taklif etilmoqda. Bunda risk indeksi ORI deb belgilab olinadi. Uning hisoblash formulasi quyidagicha ko'rinishda bo'ladi.

$$\text{ORI} = \text{ORHDR} / \text{ORBDR} (5)$$

bu yerda: ORHDR, ORBDR – tijorat banklarining hisobot davri koeffitsiyenti hamda bazis davrlar koeffitsiyentlari.

Taklif etilayotgan formula orqali tijorat banklarida operatsion risklarni yuzaga keltiruvchi omillarning ta'sir darajasini aniq baholash mumkin. SHu bilan birga tijorat banklari tomonidan qo'shimcha daromad olish manbaini aniqlash maqsadida quyidagilarni nazarda tutish zarur. Tijorat banklarida operatsion riskning yuzaga kelish chegaralari belgilangan bo'lib, bunda asosiy e'tibor quyidagi mezonlarga bog'liq:

1. Agar, $0 < \text{ORI} < 1$ bo'lsa, tijorat banklari operatsion riskni soliq to'liq to'lab berilgandan keyingi sof foydasi hisobidan qoplab beradi.

2. Agar, $ORI > 1$ bo'lsa, tijorat banklarida boshqaruv cherasi to'liq izdan chiqish hamda sof foydadan qoplash darajasi past bo'lganidan dalolat beradi.

3. Agar $0 > ORI > -1$ bo'lsa, tijorat banklari amalga oshirilgan operatsiyalardan to'liq zarar ko'rishi orqali operatsion risklarni boshqarish imkonini qo'ldan chiqargan bo'ladi.

4. $ORI < -1$ ko'rsatkichi bo'lsa, tijorat banklari hisobot davri oxiriga kelib, o'tgan-yilga nisbatan daromad manbai kamaygan bo'ladi.

4-jadval

Bank tizimining daromadlilik ko'rsatkichlari (mlrd. so'm)¹²

Bank tizimi daromad va xarajatlari	01.04.2020-y.	01.04.2021-y.
Foizli daromadlar	8 149	10 713
Foizli xarajatlar	4 988	6 810
Foizli marja	3 161	3 902
Foizsiz daromadlar	3 621	5 445
Foizsiz xarajatlar	865	1 054
Operatsion xarajatlar	1 748	2 070
Foizsiz daromad (zarar)	1 009	2 321
Kredit va lizing bo'yicha ko'rilish ehtimoli bo'lgan zararlarni baholash	2 376	4 280
Boshqa aktivlar bo'yicha ko'rilish ehtimoli bo'lgan zararlarni baholash	99	114
Soliq to'langunga qadar sof foyda (zarar)	1 695	1 829
Foyda solig'ini to'lash xarajatlari	303	356
Sof foyda (zarar)	1 392	1 473
Bank tizimining daromadlik ko'rsatkichlari		
Soliq to'langunga qadar sof foydaning jami aktivlarga nisbati (ROA)	2,4	2,0
Sof foydaning jami kapitalga nisbati (ROE)	10,7	9,9
Sof foizli daromadlarning jami aktivlarga nisbati	4,4	4,2
Kreditlar bo'yicha olingan sof foizli daromadlarning jami kredit qo'yilmalariga nisbati	5,7	5,5
Sof foizli daromadlarning jami majburiyatlarga nisbati	5,4	5,0
Sof foizli marjaning jami aktivlarga nisbati	4,5	4,2

Operatsion risklar tijorat bankining boshqa ko'rsatkichlariga ta'siriga doir uslubiy yondashuvlar sohasidagi yuqorida tavsiflangan muammo va kamchiliklardan tashqari, banklarning operatsion risklarga ta'sirchanligini aniqlashda muammolar mavjud. Yuqoridagi holatlardan kelib chiqqan holda, tijorat banklarida operatsion risklarni baholash tizimini «Turonbank» AT ko'rsatkichlari asosida tahlil qilish lozim.

Turonbank davlat ulushiga ega banklardan bo'lib, 2020-yil aprel oyiga nisbatan kreditlari jihatidan 4 529 mlrd. so'mni tashkil etgan. 2021-yil aprel holatiga ko'ra 7603 mlrd. so'mni tashkil etgan (shulardan, 858 mlrd. so'm jismoniy shaxslar, 6205 mlrd. so'm yuridik shaxslar). Depozitlar bo'yicha, 1619 mlrd. so'mni tashkil etgan

¹² Markaziy bank ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

bo'lsa, 2021-yil aprel holatiga ko'ra 2215 mlrd. so'mni tashkil etgan. Bu ko'rsatkichlar bo'yicha davlat ulushi mavjud bo'lgan banklar orasida 10-o'rinni egallagan.

Respublikamiz bank tizimida daromadlilik ko'rsatkichlari 2020-yil aprel oyiga nisbatan 2021-yil aprel oyida barcha daromad va xarajatlar ko'rsatkichi bo'yicha ijobiy holatga erishilgan. Jumladan, foizli daromadlar o'tgan-yilga nisbatan 2564 mlrd. so'mga oshgan bo'lsa, foizli xarajatlar 1922 mlrd. so'mga oshgan hamda foizli marja 741 mlrd. so'mga o'sgan.

5-jadval


Turonbank operatsion risk ko'rsatkichlari¹³

№	Ko'rsatkichlar	mln. so'm	Ko'rsatkichlar	mln. so'm
1.	2016-yildagi bank daromad va xarajatlari	89,9	2017-yildagi bank daromad va xarajatlari	109,2
a	Foizli daromad	67,2	Foizli daromad	92,8
b	Foizli xarajat	30,1	Foizli xarajat	47,4
v	Foizsiz daromad	62,3	Foizsiz daromad	76,4
g.	Foizsiz xarajat	9,5	Foizsiz xarajat	12,5
2.	2017-yildagi bank daromad va xarajatlari	109,2	2018-yildagi bank daromad va xarajatlari	201,5
a	Foizli daromad	92,8	Foizli daromad	218,4
b	Foizli xarajat	47,4	Foizli xarajat	79,9
v	Foizsiz daromad	76,4	Foizsiz daromad	83,9
g.	Foizsiz xarajat	12,5	Foizsiz xarajat	20,9
3.	2019-yildagi bank daromad va xarajatlari	201,5	2020-yildagi bank daromad va xarajatlari	295,6
a	Foizli daromad	218,4	Foizli daromad	437,5
b	Foizli xarajat	79,9	Foizli xarajat	223,9
v	Foizsiz daromad	83,9	Foizsiz daromad	107,9
g.	Foizsiz xarajat	20,9	Foizsiz xarajat	23,8
4.	O'rtacha yalpi daromad (uch-yillik)	113,5	O'rtacha yalpi daromad (uch-yillik)	202,1
5.	Operatsion risk summasi	154,1	Operatsion risk summasi	233,2

Bank tizimining daromadlilik ko'rsatkichlarida aksincha 2020-yilga nisbatan pasayish holatlari kuzatilgan. Jumladan, soliq to'langunga qadar sof foydaning jami aktivlarga nisbati (ROA) ko'rsatkichi 0,4 ga, sof foydaning jami kapitalga nisbati (ROE) 0,8 ga, kreditlar bo'yicha olingan sof foizli daromadlarning jami kredit qo'yilmalariga nisbati 0,2 ga hamda sof foizli marjaning jami aktivlarga nisbati 0,3 ga pasaygan.

Jadval ma'lumotlari tahlil qilinsa, Turonbankning operatsion riski 2020-yil yanvar holatiga nisbatan 2021-yil yanvar holatiga 79,1 mlrd. so'mga oshgan. Besh-yillik operatsion risk ko'rsatkichi tahlil qilinsa, qo'yidagicha bo'lgan:

¹³ Turonbank ma'lumotlari asosida tayyorlandi.



5-rasm. Turonbank operatsion risk summasining o'zgarish dinamikasi¹⁴

Respublikamiz banklarida operatsion risklarni hisoblash uchun quyidagicha yondashuvga asoslanadi:

$$OR = (100/KEK) \times O'YAD \times 15\%, \quad (6)$$

bu yerda: KEK – amaldagi kapitalning etarligiga qo'yilgan talab koeffitsiyenti; O'YAD – o'rtacha yalpi daromad (uch-yillik yalpi daromad qo'shib, uchga bo'linadi).

Jumladan, $OR(2020) = (100/13) \times (89,9 + 109,2 + 201,5)/3 \times 0,15 = 154,1$ mlrd. so'm. Qolgan-yillar uchun ham xuddi shunday algoritm asosida hisoblanadi.

Tahlil qilingan davrlarda Turonbankning yalpi daromad summasi 2017-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 109,3 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yil 1-yanvar holatiga kelib, 202,1 mlrd. so'mni tashkil etgan. Mos ravishda bankning operatsion risklari ham ortib borgan. Jumladan, 2017-yil 1-yanvar holatiga 142,6 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2019-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 120,6 mlrd. so'mga pasaygan, keyingi-yillarda yana keskin oshib borib, 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 233,2 mlrd. so'mni tashkil etgan. Bankning operatsion risk summasi bilan yalpi daromad farqi eng yuqori holati 2017-yil 1-yanvar holatida 33,3 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichi farqi 2019-yil 1-yanvar holatida kuzatilib, 20,1 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Demak, bankning keyingi-yillarda operatsion risk summasi oshib ketishi uning zaxira summasi orqali yopish imkoniyatini bergan bo'lsa-da, salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Buning uchun bank tomonidan quyidagi tadbirlarni amalga oshirish muhim hisoblanadi:

Birinchi, yuqori va o'rta darajadagi menejment uchun risklarni hisobga olgan holda baholash, ish haqi va samaradorlikni boshqarish siyosati hamda tartibotlarini o'z ichiga olgan risklarni boshqarish amaliyotini o'zgartirish zarur.

¹⁴ Turonbank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Ikkinchidan, operatsion riskni boshqarish qobiliyati boshqa biznes yangiliklari bilan hamqadam bo'lishi zarur. Bunga yangi murakkab moliyaviy vositalarga xos risklarni baholash uchun risklarni o'rganish dasturlarini yaratish kiradi.

Uchinchidan, bank menejerlarning murakkab vositalarga xos risklarni aniqlash, baholash, o'lchash va kamaytirish bo'yicha zarur ko'nikmalarga ega bo'lishlarini ta'minlashi kerak.

To'rtinchidan, risklarni boshqarish tartiblari va boshqaruv tuzilmalarini takomillashtirish zarur.

Tijorat banklarida risk omillarining yuzaga kelish imkoniyatlari yuqori bo'lgan sohasi kredit portfelini hisoblanadi. Banklarning kredit portfeliga ta'sir etuvchi risklar darajasini baholashda diversifikatsiya-lashdan keng foydalaniladi. Bundan tashqari, jahon bank amaliyotida banklarning kredit portfelidagi tarmoqlarni klasterlarga ajratgan holda baholash ham qo'llaniladi. Tarmoqlarning klaster asosida risk omillari tahlili asosida bankning daromadi va kredit portfelini riskini aniqlash bo'yicha amaliyotda foydalanib kelinayotgan omillar tenglamasidan foydalanish mumkin: Bunda, $KQD = RK \times KQK$ (kredit qo'yilmalari daromadi, %) = RK (risk koeffitsiyenti, kredit qo'yilmalaridan yo'qotishlar, %) \times KQK (foizli daromaddan muddati o'tgan kreditlarni qoplash koeffitsiyenti) orqali hisoblanadi.

RK (risk koeffitsiyenti, kredit qo'yilmalaridan yo'qotishlar, %) hamda KQK (foizli daromaddan muddati o'tgan kreditlarni qoplash koeffitsiyenti) quyidagicha hisoblab topiladi:

$$RK = \frac{\text{muddati o'tgan qarzdorlik}}{\sum \text{kredit qo'yilmalari} - \text{ssudadan yo'qotishlarni qoplash zaxirasi}} \times 100\% \quad (7)$$

$$KQK = \frac{\text{Foizli daromad}}{\text{Muddati o'tgan qarzdorlik}} \quad (8)$$

